



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</i> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<i>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<i>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</i> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<i>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIVAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</i> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<i>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIVAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<i>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<i>KORXONALAR MOLIVAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</i> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<i>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</i> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<i>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</i> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<i>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</i> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<i>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</i> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</i> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<i>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<i>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<i>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</i> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<i>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI

Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, DSc

Alfraganus universiteti dotsenti

Shxamdamov@tsue.uz

Fozilova Shaxloxon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini

rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy - tadqiqot markazi doktoranti

Shaxloxonndirovna_97@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda logistika sohasida raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy va amaliy tahlil qilinadi. Tadqiqot logistika samaradorligi va tashqi savdo hajmi o'rtasidagi empirik bog'liqlikni xalqaro tadqiqotlar va Jahon bankining Logistics Performance Index (LPI) ko'rsatkichlari asosida yoritadi.

O'zbekiston sharoitida transport va logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi, multimodal transport yo'laklarini rivojlantirish, bojxona samaradorligini oshirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish eksport hajmi, tranzit salohiyati va global raqobatbardoshlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, logistika tizimini kompleks rivojlantirish milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, eksport diversifikatsiyasi va xalqaro savdo integratsiyasini mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, empirik tahlillar logistika xarajatlarini optimallashtirish va raqamlashtirish orqali milliy raqobatbardoshlikni oshirishning amaliy yo'llarini aniqlashga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Logistika, Transport, Jahon banki, Logistics Performance Index (LPI), raqobatbardoshlik, eksport.

Abstract: This article presents a theoretical and practical analysis of improving competitiveness in the logistics sector of Uzbekistan. The study examines the empirical relationship between logistics performance and foreign trade volume based on international research and the World Bank's Logistics Performance Index (LPI). In Uzbekistan, the modernization of transport and logistics infrastructure, the development of multimodal transport corridors, improved customs clearance efficiency, and the introduction of digital technologies have a significant impact on export volume, transit potential, and global competitiveness. The study's results demonstrate that the comprehensive development of the logistics system is strategically important for strengthening sustainable growth of the national economy, diversifying exports, and integrating international trade. At the same time, the empirical analysis allows us to identify practical ways to enhance national competitiveness through the optimization and digitalization of logistics costs.

Keywords: Logistics, Transport, World Bank, Logistics Performance Index (LPI), competitiveness, exports.

Абстрактный: В данной статье представлен теоретический и практический анализ повышения конкурентоспособности в логистическом секторе Узбекистана. В исследовании рассматривается эмпирическая взаимосвязь между эффективностью логистики и объемом внешней торговли на основе международных исследований и Индекса эффективности логистики (ИПЛ) Всемирного банка. В условиях Узбекистана модернизация транспортно-логистической инфраструктуры, развитие мультимодальных транспортных коридоров, повышение эффективности таможенного оформления и внедрение цифровых технологий оказывают значительное влияние на объем экспорта, транзитный потенциал и глобальную конкурентоспособность. Результаты исследования показывают, что комплексное развитие логистической системы имеет стратегическое значение для укрепления устойчивого роста национальной экономики, диверсификации экспорта и интеграции международной торговли. В то же время эмпирический анализ позволяет определить практические пути повышения национальной конкурентоспособности за счет оптимизации и цифровизации логистических затрат.

Ключевые слова: Логистика, Транспорт, Всемирный банк, Индекс эффективности логистики (ИПЛ), конкурентоспособность, экспорт.

Kirish (Введение/Introduction).

Hozirgi globallashuv sharoitida jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro savdo hajmining ortishi hamda global qiymat zanjirlarining kengayishi sharoitida transport-logistika tizimi milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini belgilovchi strategik infratuzilmaviy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, logistika samaradorligi tovar va xizmatlar harakatining tezligi, xarajatlar darajasi hamda yetkazib berish ishonchligi orqali mamlakatning xalqaro bozordagi pozitsiyasini belgilaydi. Jahon bankining Logistics Performance Index (LPI) ko'rsatkichlari logistika infratuzilmasi, bojxona samaradorligi va transport xizmatlari sifati savdo oqimlari va eksport hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

O'zbekistonning geostrategik joylashuvi, Markaziy Osiyoda tranzit hudud sifatidagi salohiyati hamda tashqi savdo integratsiyasining kengayishi transport-logistika tizimini modernizatsiya qilishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda. Logistika samaradorligi transport xarajatlari, yetkazib berish muddatlari va savdo operatsiyalarining tezligi orqali iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tadqiqotlar logistika ko'rsatkichlarining yaxshilanishi eksport hajmining ortishi, investitsion jozibadorlikning kuchayishi va ishlab chiqarish samaradorligining oshishi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibiy transformatsiya bosqichida bo'lib, sanoatni diversifikatsiya qilish, eksport geografiasini kengaytirish va tranzit salohiyatini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu jarayonlarda transport-logistika tizimining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning Markaziy Osiyodagi tranzit markaziga aylanish strategiyasi transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, multimodal logistika markazlarini rivojlantirish hamda raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etishni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Методология/Methodology).

Mazkur tadqiqot logistika sohasi raqobatbardoshligini baholash va uni oshirish omillarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, nazariy va empirik yondashuvlar usullardan foydalanildi.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы / Literature review).

O'zbekiston sharoitida logistika va transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sish omili sifatida baholanmoqda. (Qo'chqorovich 2025) transport va logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi YAIM o'sishi hamda hududiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirishini ta'kidlaydi. [1].

Feruzbek 2025 logistika sohasining tashqi savdo samaradorligidagi o'rnini asoslab, transport xarajatlari va vaqt omilining kamayishi eksport hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. [2].

Transport-logistika tizimini samarali tashkil etish va boshqarish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi (Akbarovich, 2025). [3].

Shu bilan birga, logistika xarajatlarini optimallashtirish mahsulotlarning narx raqobatbardoshligini ta'minlash va korxonalar rentabelligini oshirishga xizmat qiladi (Abdujabbor o'g'li, 2025). [4].

Milliy iqtisodiyot transformatsiyasi va raqamli islohotlar logistika jarayonlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Abdulla (2025) [5] iqtisodiy transformatsiya jarayonida infratuzilma va raqamli texnologiyalar rivojlanishining ahamiyatini asoslaydi. Sun'iy intellekt va raqamli monitoring tizimlarining logistika sohasiga joriy etilishi jarayonlar shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda (Diyorbek & Xumoyun, 2025). [6].

Transport tizimlarini kompleks rivojlantirish, jumladan multimodal transport yo'laklarini kengaytirish mamlakatning tranzit salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi (Qodirovich, 2025). [7].

Logistikaning iqtisodiy o'sishga ta'siri savdo hajmining kengayishi va ishlab chiqarish samaradorligining ortishi orqali namoyon bo'ladi (Ilhomjon, 2025). [8]. Jahon savdo tashkilotiga integratsiya jarayonida logistika tizimining samaradorligi milliy raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida baholanadi (Qanoatovich, 2026). [9].

Shunday qilib, mavjud ilmiy tadqiqotlar logistika infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona samaradorligini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish milliy iqtisodiyotning global savdo tizimidagi pozitsiyasini mustahkamlashning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida logistika sohasi raqobatbardoshligini oshirish transport tizimini modernizatsiya qilish va institutsional islohotlar bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi zarur.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/ Analysis and results).

Logistika sohasi zamonaviy global iqtisodiyotda milliy raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi asosiy infratuzilmaviy determinantlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Global qiymat zanjirlari chuqurlashgan sharoitida ishlab chiqarish jarayonlari geografik jihatdan tarqoq bo'lib, xomashyo, yarim tayyor mahsulot va tayyor mahsulotlarning o'z vaqtida yetkazib berilishi iqtisodiy samaradorlikning hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Shu bois logistika tizimining sifati nafaqat savdo operatsiyalarining texnik jihati, balki milliy iqtisodiy strategiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro empirik tadqiqotlar logistika samaradorligi va tashqi savdo hajmi o'rtasida barqaror ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi (Hausman, Lee & Subramanian, 2013; Marti, Puertas & Garcia, 2014; Gani, 2017). Mazkur tadqiqotlar shuni aniqlaganki, transport va logistika infratuzilmasining rivojlanganligi savdo xarajatlarini kamaytiradi, eksport operatsiyalarining tezkorligini oshiradi hamda korxonalarining xalqaro bozordagi raqobat ustunligini mustahkamlaydi. Ayniqsa, bojxona jarayonlarining samaradorligi va infratuzilmaning sifati eksport qiluvchi firmalar uchun operatsion risklarni kamaytiradi va bozorga kirish to'siqlarini pasaytiradi.

Jahon bankinging Logistics Performance Index (LPI) ko'rsatkichlari logistika tizimini baholashda kompleks indikator sifatida keng qo'llaniladi (Arvis et al., 2018; 2023). LPI tarkibidagi bojxona samaradorligi, infratuzilma sifati, logistika xizmatlari kompetensiyasi, yuklarni kuzatish imkoniyati va yetkazib berishning o'z vaqtida amalga oshirilishi kabi komponentlar savdo raqobatbardoshligi bilan bevosita bog'liqdir. Puertas, Marti va Garcia (2014) logistika samaradorligi past bo'lgan mamlakatlarda eksport xarajatlari yuqori bo'lishi va bu ularning global bozordagi pozitsiyasini zaiflashtirishini asoslab bergan. Bu xulosa logistika tizimini modernizatsiya qilish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylanishi zarurligini ko'rsatadi. [10].

O'zbekiston sharoitida transport va logistika tizimi iqtisodiy transformatsiya jarayonining muhim komponenti sifatida rivojlanmoqda. Qo'chqorovich (2025) transport-logistika infratuzilmasining modernizatsiyasi YAIM o'sish sur'atlarini jadallashtirish hamda hududlararo iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishini ta'kidlaydi. Infratuzilmaning kengayishi ichki bozorlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksizligini ta'minlaydi va logistika samaradorligini oshiradi.

Feruzbek (2025) logistika samaradorligining tashqi savdo ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilib, transport xarajatlari va yetkazib berish vaqtining qisqarishi eksport hajmining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini asoslaydi. Bu esa logistika tizimining samaradorligi eksport

diversifikatsiyasi va yangi bozorlarga kirib borish imkoniyatlarini kengaytirishini anglatadi. Shu nuqta nazardan, logistika nafaqat yordamchi infratuzilma, balki iqtisodiy o'sishning faol drayveri sifatida namoyon bo'ladi.

Transport-logistika tizimini samarali tashkil etish va boshqarish iqtisodiy samaradorlikning muhim sharti hisoblanadi (Akbarovich, 2025). Logistika xarajatlarini optimallashtirish ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va mahsulotlarning narx raqobatbardoshligini oshiradi (Abdujabbor o'g'li, 2025). Ayniqsa, ochiq iqtisodiyot sharoitida transport va bojxona xarajatlarning yuqori bo'lishi eksport qiluvchi firmalar uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli logistika xarajatlarini kamaytirish milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot transformatsiyasi va raqamli islohotlar logistika tizimining sifat jihatdan yangi bosqichga o'tishini ta'minlaydi. Abdulla (2025) iqtisodiy transformatsiya jarayonida infratuzilma va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi sinergiya iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini ta'kidlaydi. Diyorbek va Xumoyun (2025) logistika jarayonlariga sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va raqamli monitoring vositalarini joriy etish operatsion xarajatlarni kamaytirish, yuk oqimlarini optimallashtirish va yetkazib berish muddatlarini qisqartirishga xizmat qilishini asoslaydi. Xalqaro tajriba ham logistika tizimining raqamlashtirilishi savdo samaradorligini oshirishini tasdiqlaydi (Arvis et al., 2018).

1-jadval

Logistika samaradorligi va milliy raqobatbardoshlik o'rtasidagi bog'liqlik (nazariy model asosida)¹

Logistika omili	Iqtisodiy ta'sir mexanizmi	Natijaviy ko'rsatkich
Bojxona samaradorligi	Chegara rasmiylashtiruv vaqtining qisqarishi	Eksport hajmining oshishi
Infratuzilma sifati	Transport xarajatlarning kamayishi	Narx raqobatbardoshligining kuchayishi
Logistika xizmatlari kompetensiyasi	Yetkazib berish ishonchligi	Savdo barqarorligi
Raqamlashtirish darajasi	Operatsion xarajatlarning optimallashtirishi	Rentabellikning oshishi
Multimodal transport rivoji	Tranzit salohiyatining kengayishi	Hududiy integratsiyaning kuchayishi

2-jadval.

O'zbekistonda logistika tizimi rivojlanishining iqtisodiy ta'sir yo'nalishlari²

Yo'nalish	Amalga oshirilayotgan islohot	Kutilayotgan iqtisodiy natija
Transport infratuzilmasi	Temiryo'l va avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish	Savdo xarajatlarni kamaytirish
Bojxona tizimi	Elektron deklaratsiya va "yagona darcha" tizimi	Eksport operatsiyalarini tezlashtirish
Raqamli logistika	AI va monitoring tizimlarini joriy etish	Yetkazib berish muddatini qisqartirish
Logistika xarajatlari	Optimallashtirish mexanizmlari	Korxonalar rentabelligini oshirish
Tranzit siyosati	Multimodal yo'laklarni kengaytirish	Mintaqaviy savdo hajmini oshirish

Transport tizimlarini kompleks rivojlantirish, xususan multimodal transport yo'laklarini kengaytirish mamlakatning tranzit-geografik ustunliklarini iqtisodiy afzallikka aylantirish imkonini beradi (Qodirovich, 2025). O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi strategik joylashuvi tranzit salohiyatini oshirish va mintaqaviy savdo oqimlarida faol ishtirok etish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Ilhomjon (2025) logistikaning iqtisodiy o'sishga ta'siri savdo hajmining ortishi, ishlab

¹ Manba: Hausman et al. (2013); Marti et al. (2014); Arvis et al. (2018; 2023) asosida muallif ishlanmasi.

² Manba: Qo'chqorovich (2025); Akbarovich (2025); Abdulla (2025); Diyorbek & Xumoyun (2025) asosida muallif ishlanmasi.

chiqarish samaradorligining oshishi va investitsion jozibadorlikning kuchayishi orqali namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Jahon savdo tashkilotiga integratsiya jarayonida logistika tizimining samaradorligi milliy raqobatbardoshlikning hal qiluvchi omiliga aylanadi (Qanoatovich, 2026). Global savdo standartlariga moslashish logistika infratuzilmasining xalqaro talablar darajasida rivojlanishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, bojxona jarayonlarini soddalashtirish, elektron deklaratsiya tizimlarini kengaytirish va chegara nazorat mexanizmlarini optimallashtirish eksportni rag'batlantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Umuman olganda, ilmiy manbalar va empirik tahlillar shuni ko'rsatadiki, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, bojxona samaradorligini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish milliy iqtisodiyotning global savdo tizimidagi pozitsiyasini mustahkamlashning muhim shartidir. O'zbekiston sharoitida logistika sohasi raqobatbardoshligini oshirish transport tizimini modernizatsiya qilish, institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirilishi zarur.

Shu tariqa, logistika tizimining kompleks rivoji milliy raqobatbardoshlikni oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning strategik omili sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa (Заключение, Conclusion).

Logistika tizimi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, eksport salohiyatini kengaytirish va global savdo integratsiyasidagi pozitsiyasini mustahkamlashda strategik infratuzilmaviy omil hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar va Jahon bankining Logistics Performance Index (LPI) ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, logistika samaradorligi eksport hajmi va transport xizmatlari samaradorligiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Hausman, Lee & Subramanian, 2013; Marti, Puertas & García, 2014; Arvis et al., 2018).

O'zbekiston sharoitida transport-logistika tizimi modernizatsiya qilinishi, multimodal transport yo'laklarini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tashqi savdo hajmi, tranzit yuk oqimining o'sishi va transport xizmatlari eksportining oshishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, logistika xarajatlarini optimallashtirish va transport xizmatlarini raqamlashtirish korxonalarining samaradorligini oshirish hamda mahsulotlarning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, logistika sohasi milliy iqtisodiyotdagi barqaror raqobatbardoshlikni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Qo'chqorovich, E. T. (2025). O'ZBEKISTONDA TRANSPORT VA LOGISTIKA SOHASI RIVOJLANISHINING MILLIY IQTISDIYOTGA TA'SIRI. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 15(02), 203-205.
2. Feruzbek, N. (2025). LOGISTIKA SOHASINI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. Лучшие интеллектуальные исследования, 43(1), 228-232.
3. Akbarovich, S. A. (2025). O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI TIZIMINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY AHAMIYATI. Global Science Review, 1(1), 486-490.
4. Abdujabbor o'g, U. O. A. (2025). LOGISTIKA XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH USULLARI. Modern education and development, 26(3), 8-14.
5. Abdulla, T. (2025). O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI: BARQAROR OSISH, RAQAMLI ISLOHOTLAR VA KELAJAK POTENTIALI. Shokh Articles Library, 1(2).
6. Diyorbek, A., & Xumoyun, E. (2025). O'ZBEKISTON LOGISTIKA SOHASIGA SUN'YIY INTELLEKT TA'SIRI. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 55(1), 72-74.
7. Qodirovich, N. O. (2025). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TRANSPORT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. TADDIQOTLAR, 76(2), 26-31.
8. Ilhomjon G'ulomjon o'g, F. (2025). IQTISODIY O'SISHDA LOGISTIKANING O'RNI. Modern education and development, 26(3), 142-147.
9. Qanoatovich, Y. J. (2026). O'ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZOLIGI: IQTISODIY O'SISH, RAQOBATBARDOSHLIK VA MARKAZIY OSIYO TAJRIBASI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADDIQOTLAR JURNALI, 4(48), 34-40.
10. Umurxo'jayevich, A. S., & Komiljon o'g, E. A. (2025). EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA LOGISTIKA TIZIMLARINING ROLI. 86(2), 166-170.